



# TIBBIYOTNOMA

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI NASHRI

№ 8 2023 YIL 30 AVGUST

## YANGI HAYOT UCHUN, YANGI O'ZBEKISTON UCHUN!



## BAYRAM QUTLOVI

**Mustaqillik – xalqimiz uchun erkin, baxtli va farovon hayot kechirish imkonini bergani, yurtdoshlarimizning barcha sohalarda o'z iste'dod va qobiliyatini to'la namoyon etishi, huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarish uchun beqiyos imkoniyatlar yaratgani bilan qadrlidir.**

O'tgan 32 yil davomida jonajon O'zbekistonimiz mashaqqatli va sharaflı yo'lni bosib o'tdi, yurtimizda olamshumul ishlar amalga oshirildi. Yangi O'zbekiston tamomila yangicha qiyofa kasb etmoqda, bunyodkorlik ishlari jadal sur'atda davom etmoqda.

Ta'kidlash joizki, 2023 yil – "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da aholini turmush darajasi yanada yaxshilanmoqda, mahobatli turar-joy binolari, tekis ravon yo'llar, shinam, ko'rkam mahalla va guzarlar, zamonaviy dam olish maskanlari, yoshlar uchun kun sayin yangilanib borayotgan imkoniyatlarda o'z aksini topmoqda.

Sog'liqni saqlash tizimida izchillik bilan amalga oshirilayotgan islohotlar ham yurtimizda inson umri, uning sihat-salomatligi oliy qadriyat sifatida amalda ulug'lanayotganidan dalolatdir. Yurtimizda birlamchi tibbiy-sanitariya, shoshilinch va tez tibbiy yordam hamda ixtisoslashtirilgan xizmatlar takomillashib bormoqda. Onalar va bolalar o'limining oldini olish, kasalliklarni barvaqt aniqlash, oilalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, tibbiy madaniyatni oshirish, aholining o'rtacha umr ko'rish darajasini uzaytirish bo'yicha sezilarli natijalar qo'lga kiritilmoqda. So'nggi yillarda mamlakatimizda oliy ta'lim tizimini barcha jabhalarida bo'lgani kabi, tibbiy ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirildi. Tibbiy yordam ko'rsatish sifatini oshirish va yuqori malakali mutaxassisni shakllantirishda tibbiyot oliy o'quv yurtlarida talabalarni tayyorlash, ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar, zamonaviy



axborot texnologiyalaridan keng foydalanishga e'tibor kuchaytirilmoqda.

Hurmatli hamkasblar! Biz o'z oldimizga xalqimizni har tomonlama rozi qilishdek ulug' vazifani qo'yg'an ekanmiz, bu maqsadga erishish yo'lida sog'liqni saqlash tizimini jadallik bilan rivojlantirishga birinchi darajali ahamiyat qaratmoqdamiz. El aziz, inson aziz bo'lgan yurtga bayramlar yarashadi. Mustaqillik shodiyonalari hududlarda "Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun!" shiori ostida nishonlanmoqda.

Yangi O'zbekiston tibbiyoti mustaqilligimizning 32 yilligini munosib shodiyona, o'zgacha iftixor bilan qarshi olmoqda. Hurmatli akademiklar, professor-o'qituvchilar, barcha xodimlar va talabalar bugungi jasorat va matonat namunasini ko'rsatib kelayotgan barcha tibbiyot xodimlari, aziz hamkasblarimni eng ulug', eng aziz bayramimiz – Mustaqillik bayrami bilan chin qalbidan muborakbod etaman.

Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo, JONAJON O'ZBEKISTONIMIZ YANADA GULLAB-YASHNASIN! Sizlarga sog'lik-omonlik, ishlaringizda ulkan muvaffaqiyatlar, oilangizga tinchlik-xotirjamlik tilayman.

**A.SHADMANOV,**  
TTA rektori

Hikmat



*Yangi O'zbekistonda el aziz, inson aziz.*



Hikmat

## ISTIQLOLI – ABADIY, ISTIQBOLI – MUNAVVAR O‘ZBEKISTON..

**Mustaqillik! Istiqlol! Ozod, o‘z erkiga ega mustaqil diyor! Barcha-barcha so‘zlar bu so‘z oldida biz uchun eng Buyukdir! Xalqimiz, mamlakatimiz mustaqilligining 32 yilligini qarshilamoqda. Bu yilgi bayram tantanalari “Yangi hayot uchun, Yangi O‘zbekiston uchun!” shiori ostida nishonlanmoqda.**

Millat ozodligi, yurt istiqdoli bilan bog‘liq bu tarixiy sana – o‘zbekistonliklarning milliy bayrami, eng ulug‘ va aziz ayyomi, davlatimizning buyuk o‘zgarishlar sari yuz burishida imkoniyat eshiklarini keng ochib bergan qutlug‘ kun sifatida nishonlanmoqda. Mustaqillik – erkin dunyoqarash, erkin tafakkurga suyanib yashash salohiyatidir. Mustaqillik – ozod va obod Vatanning har bir farzandi o‘zligini, o‘z qadr-qimmatini, or-nomusini va g‘ururini teran anglashi uchun cheksiz va buyuk imkoniyat demakdir!

Vatan... Bu muqaddas tushuncha bugun yurtimiz mustaqillikka erishgan davrda yana o‘z asliga qaytmoqda. Bugun biz Vatanimizni ozod, erkin, mustaqil ko‘rish mobaynida Vatan hissini chuqurroq anglashga harakat qilmoqdamiz. Buyuk ajdodlarimiz: To‘maris, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temurlar jasorati, Imom al-Buxoriy, Mahmud az-Zamaxshariy, Ibn Sino, Xorazmiy, Ulug‘bek kabi alloma bobokolonlarimizning dunyo ilmu fan va madaniyati taraqqiyotiga qo‘shgan jahonshumul xizmatlarini yoki bo‘lmasa, Navoiy, Bobur, Fitrat, Cho‘lpon, Ibrohim Mo‘minov, Habib Abdullayev kabilarning faoliyatlarini vatanparvarlik namunasini deb hisoblash mumkin.

Hurlikka erishganimizning 32 yilligi munosabati bilan mamlakatimiz Prezidentining 2023 yil 27 iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining o‘ttiz ikki yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi Qarorida shunday so‘zlar bor: “O‘tgan tarixan qisqa vaqt davomida elimizning fidokorona mehnati va qat‘iyati bilan milliy o‘zligimiz, qadimiy tariximiz, boy madaniyatimiz, ezgu qadriyat va an‘analari qayta tiklandi, davlat va jamiyat hayotining tub asoslari o‘zgarib, mamlakatimiz dunyo hamjamiyatida o‘zining munosib o‘rniga ega bo‘ldi. Mamlakatimiz siyosiy hayotidagi muhim voqealar, xususan yangilangan Konstitutsiyamizning qabul qilinishi el-yurtimiz Yangi O‘zbekistonni, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga qaratilgan islohotlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlab kelayotganini yana bir bor yaqqol tasdiqladi”...

Darhaqiqat o‘tayotgan o‘ttiz ikki yil mobaynida Vatanimiz tarixida bu yillar istiqbolimizning mustahkamlangani, demokratik tamoyillar hamda bozor iqtisodiyoti asoslariga tayangan yangi jamiyat, yangi davlat qurish yo‘lidagi asrlarga teng yillar sifatida qadrlanadi. Jumladan, yaqinda muhokamasi yurtimiz aholisi tomonidan ijobiy qo‘llab-quvvatlangan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi buning isbotidir.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasining asosiy maqsadi sifatida Prezident farmonida ta’kidlangandek, xalqimizning erkin va farovon, qudratli yangi O‘zbekistonini barpo etish bo‘yicha xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog‘lom, bilimli va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo‘g‘iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta’minlash belgilangan. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi mamlakatimizni yaqin 7 yilda rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab beruvchi asosiy hujjat sifatida belgilangan.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida mamlakat taraqqiyotining beshta asosiy yo‘nalishini qamrab oluvchi 100 ta maqsad shakllantirilgan bo‘lib, barcha manfaatdor tomonlar uchun qulay va ochiq shaklda taqdim etilgan. Mazkur strategiya loyihasida ta’lim tizimi islohotlariga ham alohida o‘rin ajratilgan. Bu – bejiz emas, chunki ta’limni rivojlantirmasdan turib, yuksak taraqqiy etgan jamiyat barpo etish mushkul hisoblanadi. Shu bois, hujjatda mamlakatimizda izchil amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlarini tizimli asosda davom ettirish va yangi bosqichga ko‘tarish ko‘zda tutilgan.

Oliy ta’lim bilan bog‘liq vazifalarga ham alohida e’tibor berilgan. Oliy ta’lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish maqsadida: yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasini kamida 50 foizga yetkazish, “Top-500”ga kiradigan xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda kamida 50 ta qo‘shma ta’lim dasturi va “ikki diplomli tizim”ni joriy etish, professor-o‘qituvchilar yuklamalarini 25 foizga kamaytirish, oliy ta’lim muassasalarida ilmiy tadqiqotlar natijadorligini oshirish va ilmiy salohiyatini 70 foizga yetkazish uchun ajratilayotgan mablag‘lar miqdorini 3 barobarga oshirish, har yili 5 ming professor-o‘qituvchini tajriba almashish uchun xorijiy ilmiy tashkilotlarga yuborish kabilor ko‘zda tutilgan. Bular esa oliy ta’lim muassasalarida yangi g‘oya, innovatsiya, yangicha ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilishiga zamin yaratadi.

Dunyo hamjamiyati, xalqaro nufuzli tashkilotlar, xorijiy davlatlar Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan barcha jabhada amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar: ijtimoiy-siyosiy sohada, ijtimoiy-iqtisodiy sohalaridagi o‘zgarish va yangilanishlar, yutuq va marralarni, mamlakatimizning ulkan salohiyatini e’tirof etmoqda. Kundan-kunga O‘zbekiston bilan hamkorlik qilish niyatini bildirgan davlatlar ko‘payib bormoqda.

Mustaqillik ayyomi oldi yurtimizdagi bunyodkorlik ishlarini ko‘rib, muqaddas va betakror mamlakatimizda yashayotgan har bir inson qalbi g‘urur va iftixor tuyg‘usi bilan to‘lib toshadi. Ayniqsa, qisqa vaqt ichida poytaxtimizda bunyod etilgan yangi ta’lim, san’at inshootlari, manzilimizni yaqin qiluvchi ko‘priklar, go‘zal bog‘roglar, obod ko‘chalardagi go‘zal manzaralarni ba’zida sanab adog‘iga yeta olmasan. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan har bir islohot avvalo inson, uning manfaatlariga xizmat qilmoqda. Bu yutuqlarning bosh omili – albatta, bunyodkor xalqimiz mehnatidir. Respublikamizda insonning o‘z imkoniyatlarini to‘la namoyon etishi uchun barcha imkoniyatlar va sharoitlar mujassam.

Sog‘liqni saqlash tizimida izchillik bilan amalga oshirilayotgan islohotlar ham yurtimizda inson umri, uning sihat-salomatligi oliy qadriyat sifatida amalda ulug‘lanayotgan dalolatdir. Tizim moddiy-texnika bazasining muttasil yaxshilanishi, yetuk mutaxassislar tayyorlashga e’tibor va tibbiyot xodimlarining har tomonlama moddiy-ma’naviy qo‘llab-quvvatlanishi natijasida sohada ulkan o‘zgarishlar yuz bermoqda. Onalar va bolalar o‘limining keskin kamayishi, turli

yuqumli kasalliklarning oldini olish borasida erishilayotgan natijalar BMT, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti, YUNISEF singari ko‘plab xalqaro tashkilotlar tomonidan e’tirof etilmoqda. Jumladan, Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan iyul oyida amalga oshirilgan “O‘qituvchi va murabbiylar salomatligi” va 1 avgustdan 1 sentabrgacha davom etayotgan “Keksalar salomatligi oyligi” aksiyalari davomida mamlakatimiz pedagoglari va nuroniy otaxon va onaxonlar (qayd etilishicha 55 yoshdan oshgan 3 million 200 ming nafarga yaqin) malakali shifokorlar tomonidan o‘zlari istiqqomat qilayotgan hududda chuqurlashtirilgan tibbiy ko‘rikdan o‘tkazildi va o‘tkazilmoqda. Sog‘lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish orzusi aynan mustaqillik bilan bog‘liq ezgu itilishdir. Albatta, har bir yosh – yurt, jamiyat, qolaversa millat ertasi demakdir. Ular uchun jahonning eng zamonaviy fan va texnika yutuqlaridan xabardor bo‘lish va nufuzli ta’lim dargohlarida o‘qish imkoniyati tug‘ildi. Ta’lim, har tomonlama barkamol bo‘lib o‘sish masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilmoqda. Yurtimizda maxsus Davlat dasturining qabul qilinishida, yoshlar ta’lim-tarbiyasiga oid besh ijobiy tashabbus timsolida bu boradagi ezgu itilishlarning ustuvor yo‘nalishlari aniq belgilab berildi. Bularga javoban esa o‘g‘il-qizlarimiz ilm-fanning barcha sohalarini, san’at va sportda dunyoni hayratga solib, Vatan sha’ni yuksaklarga ko‘tarishmoqda.

“Vatan ostonadan boshlanadi”, deyishadi, biz bugun guzardami, mahalladami, qaysi qavatdagi uyda yashamaylik, Ozod yurt muqaddas havosidan erkin nafas olayotganligimizni esdan chiqarmastigimiz kerak! Xalqimizning asl farzandlaridan biri bo‘lmish Abdurauif Fitrat aytganidek, Vatan qiblagohdir, sajdagohdir, Vatanni sevmoq esa iymon va e’tiqoddir, istiqqol va istiqbol oldidagi mas’uliyatdir.

Istiqbol bergan zamonda yashab, Vatanimiz tarixini mukammal o‘rganmoq, ajdodlarimiz ma’naviy merosini anglamoq, eng ezgu shukrona ne’mat – mustaqillikni asramoq, tinchlikni qo‘riqlash – eng ezgu va sharafli burch ekanligini doimo yodda tutmog‘imiz lozim!

Yurtimizda har kuni ertalab tongni qarshi olamiz, bu istiqqol taqdim etgan munavvar istiqbol tongidir, bu tong umid, ishonch, ezgulik tongidir. Uni olqishlaylik, e’zozlab, avaylab, asraylik! Istiqqolning 32 yili qutlug‘ bo‘lgan buyuk Vatanimiz istiqboli yanada yuksak, nurli, istiqbolli bo‘lsin! “Yangi hayot uchun, Yangi O‘zbekiston uchun!” shiori esa har birimizdan Vatanimizga sadoqat, mehr va iftixor bilan astoydil xizmat qilishga undaydi!

Zotan shoir yozganidek:

*Sen mening fayzli o‘tgan har onim,  
E’tiqod, imkonim, yuksaklik shonim.  
Istiqqol bayrog‘in baland ko‘targum,  
Istiqboli oydin O‘zbekistonim...*

**Shoira QODIROVA,  
2-son fakultet va gospital terapiya,  
nefrologiya va gemodializ kafedrasini katta  
o‘qituvchisi**





## TTANING NAVBATDAGI XALQARO HAMKORI – UNESCO TASHKILOTI

**Toshkent tibbiyot akademiyasiga UNESCO tashkiloti vakillari tashrif buyurdi, ikki tomonlama hamkorliklar kelishib olindi.**



Jumladan, Sharq va G'arb tibbiyotining bir-biriga bog'liqligi, merosi, keng tarixi o'rganishga doir loyiha muhokamaga sabab bo'ldi. Loyiha Toshkent tibbiyot akademiyasining professor-o'qituvchilari ishtirokida amalga oshirilishi ma'qullandi.

Ma'lumki, Sharq

tibbiyoti boy tarixga ega. Dastlabki tibbiyotga tegishli ma'lumotlar ibtidoiy davrga taalluqli bo'lib, tosh davridayoq turli jarohlarni muvaffaqiyatli davolash, qon ketishini to'xtatish, yaralarni bog'lash va kesish kabi muomalalari muvaffaqiyatli amalga oshirilgan.

## OTORINOLARINGOLOGIYA VA BOSH-BO'YIN KASALLIKLARI BO'YICHA YANGI TIBBIYOT MARKAZI TASHKIL ETILADI

**2023-yil 1-avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Otorinolarologiya xizmatini takomillashtirish va uning ko'lamini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi.**

Otorinolarologiya sohasida tibbiy yordam ko'rsatish sifatini yaxshilash, aholining ehtiyojmand qatlamlariga yuqori malakali ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatlar ko'lamini kengaytirish, sohadagi nodavlat tibbiyot tashkilotlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, davlat muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, tibbiy kadrlarni tayyorlash va ilmfanni rivojlantirish maqsadida Respublika Otorinolarologiya Bosh va bo'yin jarrohligi markazi tashkil etilmoqda.

Ushbu soha yo'nalishida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish yo'lga qo'yiladi, yo'nalishlarda mutaxassislarini o'qitish va ularning ko'nikmalarini rivojlantirish choralari ko'riladi hamda ilmiy maktab shakllantirish, hududlarda otorinolarologik va bosh-bo'yin kasalliklarini tashxislash va davolashning zamonaviy usullari amaliyotga joriy etiladi. Bundan tashqari, yuqori texnologik amaliyotlar ko'lamini kengaytirish, sog'liqni saqlash tizimining birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida otorinolarologik va

bosh-bo'yin kasalliklari profilaktikasi, ularni erda aniqlash va davolash dasturlarini amaliyotga joriy etish, nodavlat tibbiyot tashkilotlari bilan hamkorlikda otorinolarologik va bosh-bo'yin kasalliklarini davolashning zamonaviy va yuqori texnologik usullarini davlat va nodavlat tibbiyot tashkilotlari amaliyotiga joriy etish, sog'liqni saqlash vazirligining asoslangan hisob-kitoblariga binoan audioskrining natijasi bo'yicha aniqlangan zaif eshitadigan bolalarni koxlear implantatsiya amaliyotiga tayyorgarlik davrida Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan qo'shimcha yiliga kamida 2000 ta raqamli eshitish moslamalari bilan ta'minlash yo'lga qo'yilishi nazarda tutilgan. Andijon davlat tibbiyot instituti klinikasining vaqtincha qisqartiriladigan o'rin-joylari va shtat birliklari hisobidan Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi va uning hududiy filiallari qabul-diagnostika bo'limida tunu kun xizmat ko'rsatadigan qo'shimcha otorinolarolog va yuz-jag' jarrohi shtat birliklari kiritilishi ko'zda tutilgan.

**Jamolbek JO'RAYEV**





## “TA’LIM IFTIXORI” KO’KRAK NISHONI BILAN TAQDIRLANDI

Toshkent tibbiyot akademiyasi Farmatsiya, menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va oliy ma’lumotli hamshira fakulteti bosh tyutori, Yoshlar ittifoqi besh tashabbus koordinatori Iroda Maxkamova “Zamonaviy uzluksiz ta’lim sifatini oshirish: intellektual

ta’lim-tarbiya, innovatsiya va istiqbollar” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya doirasida o’tkazilgan tadbirda “Ta’lim iftixori” ko’krak nishoni bilan taqdirlandi.

Toshkent tibbiyot akademiyasi jamoasi nomidan Iroda Maxkamova faoliyatiga ulkan zafarlar tilaymiz!



## XALQARO ALOQALAR VA XALQLAR DO‘STLIGINI MUSTAHKAMLASH YO‘LIDA

**Muqaddas islom dinida odamlar orasini isloh qilish, insonlar totuvligini yaxshilash borasida juda ko‘p bitiklar kelgan. Bugungi kunda davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev tomonidan yaqin va olis xorijiy davlatlar bilan yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini o‘rnatish, xalqaro iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy, tibbiy aloqalarni yaxshilash borasida ulkan islohotlar olib borilmoqda.**

Buning natijasida uzoq yillar mobaynida bekitilgan chegaralar ochilib, qo‘shni davlatlar fuqarolari orasida tinchlik, totuvlik, quda-andachilik munosabatlari yaxshilanmoqda. Jumladan, 2017 yildan boshlab qo‘shni Tojikiston bilan qariyb o‘ttiz yil mobaynida taqa-taq bekitilgan darvozalar ochildi. Ming yillar mobaynida jondek qo‘shni, hamsoya, hamfikir va dindosh bo‘lib kelgan ikki xalq yana bir-biriga quchoq ochib, mehrini ulasha boshladilar. Bu borada ahli ilm ham chetda turmasdan xalqaro ilmiy anjumanlar, qurultoylar tashkil qila boshlashdi. Joriy yilning 19 iyulida qadimiy va navqiron Samarqand shahrida O‘zbekiston va Tojikiston davlatlarining tashkilotlari – Tojikiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi, Sadridin Ayniy adabiyot jamg‘armasi, Turon fanlar akademiyasining Samarqand filiali, xalqaro Turon Yozuvchilar uyushmasi hamkorligida “Ilm-fan, ta’lim-tarbiya, adabiyot, jurnalistika va san‘at integratsiyasi” mavzusida davlatlararo ilmiy anjuman o‘tkazildi. Mazkur xalqaro konferensiyada O‘zbekiston, Tojikiston, Qirg‘iziston, Qozog‘iston davlatlaridan 200 dan ortiq olimlar, shoirlar, yozuvchilar, jurnalistlar, san‘atkorlar ishtirok etdi. Unda Leybnis nomli Yevropa tabiiy fanlar akademiyasi haqiqiy a‘zosi, Xalq tabobati akademiyasi akademigi, Turon xalq yozuvchisi, Xalqaro Turon yozuvchilar uyushmasi raisi Faqirov Alijon Zohidovich (adabiy taxallusi Alijon Zohidiy) “Milliy mentalitet va xalqlar do‘stligi integratsiyasi” mavzusida rus va ingliz tilida ma’ruza qildi. U Markaziy Osiyo davlatlari xalqlarining milliy mentaliteti, hududlari, olis va yaqin tarixi haqida so‘z yuritib, bugungi globallashuv davrida, axborot xurujlari zamonasida xalqlarning tinch-totuvligi naqadar ulkan ahamiyatga ega ekanligini, bu borada davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev tomonidan ulkan islohotlar amalga oshirilayotganligini e’tirof etib o‘tdi. Shu bilan birga o‘zbek, tojik, qozoq, qirg‘iz, turkman, qoraqalpoq xalqlari baayni et bilan tirnoqdek ekanligini, ular orasida yaxshi qo‘shnichilik,

ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy aloqalar har qachongidan ham kuchaytirish davri kelganligini aytib, olim va adib sifatida bu borada amaliy tavsiyalar berdi. Shu bilan birga u Turon fanlar akademiyasining hamda Toshkent tibbiyot akademiyasining faoliyatlariga qisqacha to‘xtalib, bugungi kunda Turon fanlar akademiyasida akademiklari soni 1000 ga yaqinlashgani, jahonning 25 ta davlatidan vakillar qabul qilingani, Xalqaro Turon yozuvchilar uyushmasi Markaziy Osiyo va Ozarbayjondan 300 ga yaqin ijodkorlarni uyushmaga qabul qilinganligini, bu borada ayniqsa qo‘shni Tojikiston bilan ijodiy aloqalar yaxshi yo‘lga qo‘yilganligini e’tirof etdi. Jumladan, Tojikistondan ikki nafar sermahsul ijodkorga Turon xalq yozuvchisi, qirg‘izistonlik adibga Turon xalq shoiri unvonlari berilganligini aytib o‘tdi.

Turon fanlar akademiyasi nafaqat respublikamiz ilm ahillarini rag‘batlantirib, e’tirof etib, ilmiy, ijodiy va ixtirochilik ishlariga motivatsiya beribgina qolmasdan, balki jahonning eng nufuzli ilmiy tashkilotlari, Akademiyalari bilan hamkorlik qilayotganligi ham ma’ruzachi nazaridan chetda qolmadi. Mazkur ilmiy anjumanda olim va adib Faqirov Alijon Zohidovich Tojikiston davlati yozuvchilar uyushmasiga qabul qilinib, Xalqaro “Sadridin Ayniy” ko’krak nishoni bilan taqdirlandi.

Biz Toshkent tibbiyot akademiyasining dotsenti sifatida mazkur ilm dargohining sharafini himoya qilib, xalqaro ilmiy konferensiyalarda uning nomidan ishtirok etayotgan hamda Xalqaro orden–medallarga, e’tiroflarga sazovor bo‘layotgan olim va adibimizni yuksak zafarlar bilan qutlab, ilmiy, ijodiy marralar zabt etilishini tilaymiz.

Qutbiddin NIZOMOV,  
Sog‘liqni saqlash a’lochisi,  
Turon fanlar akademiyasi akademigi, Turon xalq yozuvchisi





## ISTANBUL MEDIPOL UNIVERSITETIDA TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI VAKOLATXONASI OCHILDI

**Toshkent tibbiyot akademiyasi  
rektori A.Shadmanov  
boshchiligidagi delegatsiya  
Turkiyaning Istanbul Medipol  
universitetida bo'ldi.**

Safar davomida oliy o'quv yurti rektori, professor Omer Jeran bilan tibbiy ta'lim yo'nalishidagi ikki tomonlama munosabatlarning bugungi holati atroflicha muhokama etildi.

Ma'lumot o'rnida, Toshkent tibbiyot akademiyasi va Istanbul Medipol universiteti o'rtasida 2022-yili hamkorlik o'rnatilib, 2023-yili memorandum imzolangan edi.

Buning davomi sifatida shu yil "Kattalarda va bolalarda bo'g'im kasalliklariga zamonaviy yondashuv" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi va unda ushbu oliy o'quv yurti klinikasidan bir guruh ortoped-shifokorlar ishtirok etdi. Tadbir so'ngida TTA qoshida mazkur universitet vakolatxonasi ochildi.

O'tkazilgan bu galgi uchrashuvda esa tibbiy ta'lim yo'nalishidagi o'zaro hamkorlikni yanada kengaytirish maqsadida Yo'l xaritasi imzolandi.

Muloqot yakunida Istanbul Medipol universiteti qoshida TTA vakolatxonasi ochilib, rektor A.Shadmanovga universitetning "Faxriy professor"i unvoni topshirildi.

**Sog'liqni saqlash vazirligi  
Matbuot xizmati**

## JANUBIY KOREYANING «DAEGU HAANY UNIVERSITY» BILAN MUSTAHKAM HAMKORLIK

**Janubiy Koreyaning «Daegu Haany University» (DHU) xalq tabobati yo'nalishi bo'yicha 2, tibbiyot ta'limi bo'yicha 35 va Janubiy Koreya Universitetlari orasida TOP-100 talikka kiruvchi oliy ta'lim muassasasi hisoblanadi.**

DHU asosiy yo'nalishlari bo'yicha bir nechta institutlarni o'z ichiga olgan, ular:

Koreya xalq tabobati;  
Sog'liqni saqlash;  
Atrof-muhit;  
Madaniyat;  
Biznes va informatsiya;  
Qishloq xo'jalik va dizaynlardir.

DHU 1981-yilda tashkil etilgan bo'lib, bugungi kunda 7000 nafardan o'rtiq talabani o'z ichiga olgan.

Toshkent tibbiyot akademiyasining delegatsiyasini tashrifi davomida ushbu DHU ni tuzilishi, talabalar yashash joylari, tarixiy obidalar, kosmetologiya va xalq tabobati bilan bog'liq bo'lgan o'simliklar plantatsiyalari, kutubxona va yangi qurilayotgan o'quv binolari bilan tanishuv jarayonlari bo'lib o'tdi.

Muzokaralar davomida DHU o'zining o'quv programma-si, reja va dasturlari bilan bo'lishdi. Yangi o'quv yilidan DHU pedagog-o'qituvchilari Toshkent tibbiyot akademiyasiga tashrif buyurishib, talabalar-ga dars berishda va Toshkent tibbiyot akademiyasining ta'lim jarayoniga keng jalb qilinishi kelishildi.

Toshkent tibbiyot akademiyasi bilan olib borilayotgan hamkorlik aloqalarini kuchay-



tirilgani, talabalar almashinuvi yo'lga qo'yilgani, kelajakda xodimlar malakasini oshirishi kuchaytirilishi hamda amaliy jihatdan qilingan ilmiy ishlar natijalarini inobatga olib, Toshkent tibbiyot akademiyasining rektori A.Shadmanov va xalqaro aloqalar bo'limi boshlig'i M.Jafarovga «Daegu Haany University» Prezidenti Chang Hoon Byun tomonidan «Faxriy professor» unvoni topshirildi.



## “YONSEI PRIME HOSPITAL” KLINIKASIDAN TTA TALABALARI KATTA TAASSUROT BILAN QAYTISHDI

**Toshkent tibbiyot akademiyasi professori R.To'raqulov rahbarligida talabalar akademik mobillik almashinuv dasturi doirasida “Yonsei Prime Hospital” klinikasida bilim va ko'nikmalarini boyitdilar.**

TTA matbuot kotibi Gulchehra Mirzayeva Farobiy stipendiyasi sohibasi Marjona Qiyomova, Akademik Uktam Aripovich Aripov nomidagi stipendiya sohibasi Muslima Abdullajonova, Akademik Abdumannap Raxmanovich Raximjanov stipendiyasi sohibasi Mohinurbonu Xursanovalar bilan suhbatlashdi.

– Toshkent tibbiyot akademiyasining bir guruh talabalar qatorida Xalqaro mobillik almashinuv dasturi doirasida Janubiy Koreyada amaliyot o'tab qaytdinglar, taassurotlar qanday?

Marjona: – Ma'lumki so'nggi yillarda Respublikamizda tibbiy ta'lim tizimiga oid islohotlar sezilarli darajada o'zgardi. Joriy yil iyul oyida Toshkent tibbiyot akademiyasi professori R.Turakulov rahbarligida, 10 nafarga yaqin talabalar bilan Janubiy Koreyaning “Yonsei Prime”, “Roen” va “Yongin Severance Hospital” klinikalarida amaliyot o'tab va tibbiyot xodimlaridan tajriba o'rganib qaytdik. Janubiy Koreya sog'liqni saqlash tizimi dunyoda yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Bu, avvalo, mamlakatda soha uchun malakali kadrlar tayyorlash borasida yo'lga qo'yilgan innovatsion o'quv metodikalari va ilg'or ta'lim dasturlari bilan bog'liq. Qolaversa, shifokor, hamshira, bemorlar o'rtasidagi o'zaro qat'iy tartib-intizom zanjiriga yana bir bor amin bo'ldim.



– “Yonsei Prime” klinikasida amaliyot davrida nimalarni o'rgandingiz, qanday jihatlari bilan ushbu klinika ajralib turadi?

Muslima: – Birinchi manzilmiz Mr.Lee yo'lbo'shchiligida Seul shahrida joylashgan “Yonsei Prime Hospital”i bo'ldi. Janubiy Koreyadagi eng mashhur travmatologiya-ortopediya va reabilitologiyaga ixtisoslashtirilgan klinika bo'lib, biz barcha bo'limlar faoliyatini o'rgandik. Klinikaning laborator-instrumental diagnostik qurilmalari: raqamli rentgen, MRT va laborator qurilmalari bilan tanishdik. Klinika direktori Yoon Kyung Hvan yelkaning artroskopik jarrohliligida yangi mualliflik usullari bilan tanishtirdi. Bu usulda yelka kamari paylari jarohatida allotransplantatsiya (“inson terisi” ko'chirib o'tqazish) orqali jarohatlangan pay o'rne tiklanadi. Ushbu qiziqarli “Superior capsular reconstruction” nomli ma'ruza yakunida turli savollar tug'ildi va direktor Yoon bizni qiziqtirgan barcha savollarga javob berdi.

– Koreyalik klinika professorlari tomonidan ma'ruzalar o'qildi, ushbu ma'ruzalarda nimalarni o'rgandingiz?

Mohinurbonu:

– “Yonsei Prime Hospital”ning “Umurtqa pog'onasi” markazi direktori, professor Kim Taehyun “Biportal endoscopic spinal surgery” mavzusidagi ma'ruzasini bilan amaliyotidagi yutuqlarni tanishtirdi va ma'ruza so'ngida biz bilan ushbu mavzu bo'yicha suhbat o'tkazdi. “Bo'g'im markazi” direktori professor Hwang Chan-ha “Artificial joint replacement” mavzusidagi ma'ruzasini tizza bo'g'imida uchrovchi jarrohlik amaliyotlari xususida, amaliyotdan oldingi holat va keyingi o'zgarishlarni tubdan yoritib berdi. Toshkent tibbiyot akademiyasida ham tizza bo'g'imi jarohatlari bo'yicha jarrohlik amaliyotlari ham rivojlangan va buni amaliyot darslarida ko'rib o'rganganmiz. Shu sababli Janubiy Koreyada bu sohada o'ziga xos jarrohlik usullari bizni qiziqtirdi va o'zimizga kerakli bilim va ko'nikmalarga ega bo'ldik. Yonsei Prime Hospitalda biz jarrohlik amaliyotida ham qatnashdik. Yonsei Prime Hospital “Umurtqa pog'onasi” markazi direktori Kim Taehyun boshchiligida olib borilgan “Full – endoscopic decompressions via an interlaminar approach” yopiq jarrohlik amaliyotida bevosita qatnashdik.

– Koreyaning yana bir zamonaviy klinikasi “Yongin Severance Hospital”da amaliyot tanishuv davri qanday bo'ldi?

Marjona: – Ushbu klinika eng ishonchli tibbiy xodimlarining imkoniyatlari jamlangan, Janubiy Koreyada tashkil etilgan birinchi zamonaviy tibbiyot muassasasi. “Yongin Severance Hospital” raqamli innovatsiyalarning samarali tizimi orqali xavfsiz va yuqori sifatli tibbiy xizmatlarni taqdim etuvchi Osiyodagi eng zamonaviy klinikalardan biridir. Klinika davolanishga multiditsiplinar yondashuvni qo'llaydi, mazkur shifoxonada turli klinik bo'limlar birgalikda ishlaydi va tezkor tibbiy yordam, tizimli davolanishni taklif qiladi. “Yongin Severance Hospital” innovatsion davolash jarayonlari, ilg'or raqamli yechimlar va bemorlar xavfsizligini ustuvor vazifasi sifatida tatbiq etish orqali Koreyada tibbiyot uchun yangi tizim taqdim etuvchi shifoxonaning kelajakdagi modelidir. Bizni klinikada iliq kutib olishdi va klinika faoliyatini tubdan o'rganib chiqdik. Tanishuvni klinikaning “Axborot-resurslarni boshqarish” bo'limidan boshladik. Bu bo'limda mijozlarning qulayligi va talablarini oliy darajada qondirish uchun 5G, sun'iy intellekt va tibbiyot interneti (IoMT) asosida ishlovchi keng spektrli aqlli “informatsion-kommunikativ texnologiya” bemorlarni tashxislash, shuningdek, bemorlarni davolashni loyihalash uchun zamonaviy texnologiya yutuqlaridan foydalanadi.



Mustlima: – Shuningdek, kasalxonada 20 tadan ortiq robotlar mavjud, ular klinika bo'ylab, bemorlarga va klinika xodimlariga ko'maklashadi. Bundan tashqari, COVID-19 pandemiyasi davrida epidemiologik holatni barqarorlashtirish maqsadida har bir bemor, bemor yaqinlari va tibbiy xodimlarining GPS orqali harakat trayektoriyasini doimiy kuzatib borish klinikada yo'lga qo'yilgan. Zamonaviy tibbiyot yutuqlari bilan tanishgach, klinikaning “Laborator-dagnostika” va “Patologiya” bo'limlarida bo'ldik. Ushbu bo'limlarda tekshiruv materiallari inson faktori orqali emas, balki maxsus transport tizimi orqali to'g'ridan to'g'ri bemor palatasi yoki operatsion xonadan bo'limga yetib keladi va bu materiallar avtomatlashtirilgan mashinalar orqali saralanadi, maxsus uskunalarida sun'iy intellekt orqali diagnostika qilinadi. Shuningdek, “Patologiya” bo'limida tayyorlangan preparatlar mikroskoplarda emas, maxsus skaynerlar orqali ekranlarda baholanadi va mazkur tasvir ba'zi hollarda Amerika, Yaponiya olimlariga yuborilishi hamda ular bilan fikr almashish imkoniyatini beradi. Keyingi manzilmiz esa klinikaning “Radiologiya” bo'limi bo'ldi. Ushbu bo'lim 3 ta raqamli rentgen va 2 ta 3 tesnali MRT qurilmalari bilan jihozlangan.

Mohinurbonu: – Qolaversa, biz Seulning eng markaziy mavzesi Gangnamda joylashgan Janubiy Koreya bo'ylab 12 ta filialga ega akusherlik va ginekologiyaga ixtisoslashtirilgan “Roen Premium Medical Service” klinikasida ham bo'ldik. U yerda bizni klinika asoschisi va direktori Mr. Sungrae Roh tanishtirdilar: ko'rik xonalari, laboratoriya, bemorlar palatalari va operatsion xonalarni o'rgandik. Barcha jihozlar va qurilmalar juda zamonaviy, bemorlar va homiladorlar uchun barcha qulayliklar mavjud. Klinika shifokorlari bilan suhbat paytida nafaqat tibbiy bilim va ko'nikma bilan bo'lishishdi, balki tibbiyot olamida qanday shifokorlar qadrlanishi va qanday maqsadga erishish haqida ham o'z tavsiyalarini berishdi.

Yurtimizda yaratilayotgan bu kabi imkoniyatlar har bir yoshni ilhomlantirishi, olg'a undashi shubhasiz. Yoshlardan faqat to'g'ri foydalanish talab etiladi, xolos. Bilimga asoslangan davlat kuchli va qudratli bo'lishini rivojlangan davlatlar misolida ko'rmoqdamiz. Yurtimiz yoshlarining kelajakda Vatani korriga yarash uchun ilm olishga va uni qo'llashga harakat qilishlarini tilab qolamiz!

TTA Matbuot xizmati





**Ulug' bir sulolaning munosib bir vakili, insonlarning saralaridan biri, mustaqil yurtimiz fuqarolari orasidagi xuddi yaraqlagan dur – Toshkent tibbiyot akademiyasi Allergologiya va klinik immunologiya kafedrasining katta o'qituvchisi, 30 yildan o'rtiq "Tibbiyotnoma" ro'znomasi bosh muharriri o'rinbosari, Sog'liqni saqlash a'lochisi, Xalqaro "Antique world" hamda Turon fanlar akademiyalari akademigi, oliy toifali shifokor olim va adib Qutbiddin Nizomov 10 dan ortiq ilmiy-ommabop kitoblari, 4 ta o'quv qo'llanmasi, 2 ta darslik va 1000dan ortiq publitsistik maqolalari, O'zbekiston Respublikasi davlat teleradiokompaniyalaridagi chiqishlari e'tiborga olinib, 2023 yil 28 iyundagi qarorga ko'ra, Turon xalq yozuvchisi yuksak unvoni, akademiya diplomi va oltin suvi yugurtirilgan ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.**

## TABOBAT, TIBBIYOT VA KALOM ILMLARINI UYG'UNLASHTIRGAN OLIM

"So'zda sehr, she'rda esa hikmat bor" deydilar. So'zdagi sehnri, she'rdagi hikmatni topib olish, va xalqqa yetkazish esa hammaning ham qo'lidan kelavermaydigan ulug' iqtidor va layoqat, ta'bir joiz bo'lsa uzoq muddatlik izlanish va mehnat samarasidir. Qutbiddin Nizomov ham ana shunday tug'ma iqtidorni izlanuvchanlik, mehnatsevarlik va tadqiqotchilik bilan uyg'unlashtirib ololgan hozirgi hakimidir. U Toshkent shahrining bugungi kundagi Olmazor tumanida joylashgan Zarqaynar ko'chasi, Olcha proyezdida tavallud topgan, o'sib-ulg'aygan. Mazkur ko'chada o'z zamonasining ulug' allomalari, fozil insonlar ko'p bo'lgan. Jumladan, bobolari Nizomiddin maxzum o'z davrining ulug' allomalaridan biri bo'lib, ham tabibchilik, ham mudarrislik qilganlar. Toshkentning adadsiz osmonlariga hayrat aralash tikilib, bag'rikeng odamlari orasida yelib-yugurib, mehnat qilib, voyaga yetgan. Otalari Fathullaqori ham o'qituvchilik, ham Qur'oni karimni yod olgan qori bo'lganlar. Shu boisdan ham uning ijod namunalari ona Shoshning jozibasini, o'rab turgan tog'larining zalvori, adirlarining kengligi, osmonning musaffoligi, odamlarining bag'rikengligi aks etib turadi. Ajdodlarining orasida ko'plab insonlar o'z zamonasining olimi fuzalolaridan bo'lganligini bugungi kunda qondan-qonga o'tib, uning ruhiyatida tajalliy qilib turganligidan ham bilsa bo'ladi.

Qutbiddin Nizomov dardchil inson. Uning suhbatlarini olsangiz ham rohat qilasiz, ham o'yg'a tolasiz. Suhbatidan rohat olishingiz uning ustozini, professor Erkin Yo'ldoshevich Qosimov kabi har bir iborasida hikmat, har bir muloqotida samimiylilik, olijanoblik, insonsevarlik durdonalarini topganingizdan bo'lsa, o'ylar ummoniga cho'mishingiz har bir jumlasida zamonaning yugurukligi, Allohning barcha mahluqot va mavjudotlari bir-biriga g'animatligi, zamonning bamisli ko'pik kabi chayqalib turganligi aks etishidir. U muqaddas dinimizning ham bilimdonidir. Qutbiddin Nizomov faylasuf-shifokor. U bemorlari, kasbdoshlari, qarindoshlari, do'stu yoronlari, umuman kim bilan bo'lmasin suhbatlarida ibtido va intiho, "Kun fa yakun", borliq va yo'qlik, insoniylik va g'ayriinsoniylik, tubanlik va ulug'lik orasidagi falsafiy

farqlarni anglashga qaratilgan hikmatli so'zlari juda ko'p. O'zi tib olimi bo'lganligi bois inson vujudi va ruhiyati, tafakkuri va tajalliysi, imkoniyatlari va voqeliklari asarlari negizini tashkil qiladi.

"Insonlar bir-birining ko'zguvidirlar", degan edi shayx Jaloliddin Rumiy o'zidagi qalb ko'zini ochgan do'sti Shamsiddin Tabriziy to'g'risida. Haqiqatan ham shunday, har qanday kishining atrofida pokiza, samimiy va iymonli insonlar bo'lsa, har qanday odam ham yaxshilik sari bir qadam tashlaydi, poklanishga yuz tutadi. Aksincha, hasadgo'y, ichiqora va nopok kimsalar ham o'z atrofini xuddi o'rgimchak to'rlari kabi yomonliklar va xunrezliklar to'ri bilan o'rab tashlaydi.

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyevning shaxsan tashabbuslari bilan xalq istak-xohishlari e'tiborga olinib, Bosh Qomusimizning bir qancha bandlari o'zgartirildi. Jumladan, Konstitutsiyamizning 72-bandida: "Har qanday nodavlat-notijorat tashkilotlarning hujjatlari davlat hujjatlari bilan bir xil yuridik maqomga ega" deb ko'rsatilgan. Shu bilan birga ularning faoliyatiga noqonuniy aralashish taqiqlanganligi keltirib o'tilgan. Xalqaro Turon Yozuvchilar uyushmasi ham ana shunday nodavlat-notijorat tashkilotlardan biri bo'lib, ahli ilm va ahli ijodni rag'batlantirish maqsadida 2020 yilda tashkil topgan. Bugungi kungacha jahonning 7 ta davlatlaridan 300 ga yaqin ijodkorlar, olimlar ushbu tashkilotga a'zo bo'lib kirgan. Jahon hamjamiyati orasida tobora nufuzi oshib borayotgan uyushma sifatida e'tirof etilgan. Nazm, nasr va publitsistikada ijod qiluvchi ahli ilmlarni rag'batlantirish, motivatsiya berish uchun Abdulla Oripov, Odil Yoqubov, Behbudiy, Halima Xudoyberdiyeva ko'krak nishonlari ta'sis etilgan.

Toshkent tibbiyot akademiyasining faol xodimlaridan biri – olim va adib Qutbiddin Nizomovni Xalqaro nufuzdagi unvon va ko'krak nishoni bilan tabriklaymiz.

**Alijon FAQIROV,**  
Xalqaro Turon yozuvchilar uyushmasi raisi,  
Turon FA va Yevropa tabiiy fanlar akademiyalari akademigi





## NAVBATDAGI AKADEMIK MOBILLIK ALMASHINUV DASTURI – XITOIY XALQ RESPUBLIKASIDA



Toshkent tibbiyot akademiyasining Reabilitologiya, xalq tabobati va jismoniy tarbiya kafedrasida D.Axmedova va U.Sharipov boshchiligida bir guruh talabalar Xitoy Xalq Respublikasida akademik mobillik dasturi doirasida "Xinjiang" tibbiyot universitetining Dermatologiya kafedrasida bo'ldi va ta'lim faoliyati bilan yaqindan tanishdi.

Teri kasalliklarining bugungi kundagi dolzarb muammolari hamda ularni davolashda ahamiyati yuqori bo'lgan usullar bilan tanishdilar hamda professor Lui xonim o'z tavsiya va diagnostik usullarini o'rgatib, talabalarning kelgusi tadqiqotlarida bu usullarni qo'llashiga umid bildirdi.

## XALQARO HAMKORLIK YANGI BOSQICHDA

*Toshkent tibbiyot akademiyasini Turkiya davlatining tibbiyot oliygohlari bilan hamkorlik aloqalari kengaytmoqda.*



O'zbekiston – Turkiya tibbiyot forumi doirasida Toshkent tibbiyot akademiyasi hamda Turkiya Sog'liq bilimlari universiteti o'rtasida o'zaro anglashuv memorandumlari imzolandi. Tomonlar bakalavr va magistrantlarning akademik almashinuvini tashkil etish, professor-o'qituvchilar va doktorantlar uchun malaka oshirish, turk universitetining filiali bazasidagi shifoxonalarda yozgi amaliyot o'tash va qo'shma tadqiqot loyihalarini amalga oshirish borasida qator kelishuvlarga erishdi.

Ta'kidlash o'rinliki, Sog'liq bilimlari universiteti tibbiyot sohasida malakali kadrlar

tayyorlash borasida dunyoning yetakchi o'quv muassasalaridan sanaladi. Uning mamlakat turli hududlarida 16 ta filiali faoliyat yuritmoqda. O'ziga ishongan, yosh, tirishqoq shifokorlar tayyorlashda boy tajribaga ega.

Forum doirasida Sog'liq bilimlari universitetining bir guruh delegat a'zolari Toshkent tibbiyot akademiyasining asosiy o'quv binosiga tashrif buyurib, akademiyada yaratilgan shart-sharoitlarni yuksak e'tirof etdi va kelajakda manfaatli hamkorlik qilishga umid bildirdi.

**Toshkent tibbiyot akademiyasi  
Xalqaro hamkorlik bo'limi**

Toshkent tibbiyot akademiyasi Rektori va Kasaba uyushmasi yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi uslubchisi Beknazarova Shafolat Tursunpo'latovning padari buzrukvori

**Tursunpo'lat ota BEKNAZAROVning**

vafoti munosabati bilan marhumning oila a'zolariga chuqur hamdardlik izhor etadi.

MUASSIS:  
**TOSHKENT  
TIBBIYOT  
AKADEMIYASI**

MUHARRIR  
**TURDIQUL  
BOBOMURATOV**

TAHRIR HAYATI:  
Q.Nizomov (Bosh muharrir o'rinbosari),  
O.Hazratov, A.Zohidiy, N.Hakimova,  
L.Abduqodirova, M.Hasanova

Gazeta Pentium-IV  
kompyuterida sahifalandi va Toshkent  
Tibbiyot akademiyasi RISOGRAFida  
400 nusxada chop etildi.

Manzilimiz:

Toshkent shahri, Farobiy  
ko'chasi, 2-uy

**Nashr uchun ma'sul**  
Q.Nizomov

Gazeta Toshkent Matbuot va axborot  
boshqarmasida 2007-yil 15-yanvarda  
02-0049 raqam bilan ro'yxatga olingan

Mualliflar fikri tahririyat nuqati nazaridan farqlanishi  
mumkin. Maqolalardagi ma'lumotlar uchun  
mualliflar javobgardir

Bepul tarqatiladi